



FOTIH SULTON MEHMED II – ISTANBUL FATIHI VA DUNYO TARIXINI O'ZGARTIRGAN HUKMDORI

Elomonov Abbas

O'zMPU. Tarix Fakulteti 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Tarix sahifalarida shunday shaxslar bo'ladiki, ularning harakati bir necha davrni, butun sivilizatsiyalarni yo'nalishini o'zgartirib yuboradi. Fotih Sulton Mehmed II ana shunday siymolardan biridir. Uning Konstantinopolni zabt etishi (Babinger, 1953) bilan nafaqat Usmoniylar imperiyasi, balki butun dunyo tarixi yangi bosqichga o'tdi.*

Kalit so'zlar: *Fotih sulton Mehmed II, bizans, konstantinopol, harbiy yurishlar, ilm va san'at, memorchilik, diplomatiya, diniy bag'rikenglik, uyg'onish davri*

KIRISH

Tarix sahnasida shunday buyuk shaxslar bo'ladiki, ularning hayoti va faoliyati butun bir davr taqdirini belgilab, xalqlar va sivilizatsiyalar taqdiriga ta'sir o'tkazadi. Shubhasiz, Fotih Sulton Mehmed II ana shunday ulug' siymolardan biridir. U yoshligidanoq davlat boshqaruvi va harbiy san'at sir-asrorlariga chuqur qiziqish bildirgan, natijada qisqa fursatda o'z salohiyatini namoyon qilgan. Ayniqsa, uning 1453-yilda Vizantiya imperiyasining markazi bo'lmish Konstantinopol (hozirgi Istanbul)ni zabt etishi butun dunyo tarixida burilish yasadi va O'rta asrlar yakuniga nuqta qo'yib, Yangi davr boshlanishiga turtki berdi.

Ushbu maqolada Fotih Sulton Mehmed II ning siyosiy yetakchiligi, harbiy yurishlari, davlat boshqaruvi va ilm-fanga bo'lgan e'tibori orqali uning tarixiy merosiga baho beriladi. Shuningdek, u o'z davrida qanday qilib Usmoniy imperiyasini qudratli davlatga aylantirganiga ham to'xtalib o'tiladi.

Fotih Sulton Mehmed II (turkcha: Fatih Sultan Mehmed, 1432–1481) – Usmoniylar sulolasining yettinchi sultoni bo'lib, ikki bor taxtga chiqqan (1444–1446 va 1451–1481 yillar). U 21 yoshida Vizantiya imperiyasining poytaxti Konstantinopol (hozirgi Istanbul)ni zabt etib, o'ziga “Fotih”¹ (G'olib) laqabini oldi. Mehmed II faqatgina shaharni egallamadi – u yangi davrni boshlab berdi: O'rta asrlar yakun topib, Yangi davr boshlandi. Mehmed II 1432-yil 30-martda Edirnada tug'ilgan. Otasi Usmonlilar sultoni II Murad, onasi esa slavecha knyazlardan bo'lgan Xumoxo Xotun edi. U sulton Murod II ning 4chi o'g'li bo'lgan. Yoshligidan boshlab u yaxshi ta'lim oldi — unga islom dini, matematika, falsafa, adabiyot, turk, arab, fors tillari, shuningdek yunon va lotin tillari o'rgatildi. Mehmed II o'n bir yoshga to'lganda, o'z davridan oldingi Usmonli hukmdorlarining odatiga ko'ra, ikki *lalasi (maslahatchisi)* bilan Amasiyaga davlatni boshqarish va shu tariqa tajriba orttirish uchun yuboriladi. Sulton Murod II ham unga qo'l ostida o'qish uchun bir qancha ustozlar yuboradi. Bu islomiy ta'lim Mehmedning

¹ Inalcik, H. *Fotih davri ustida tadqiqotlar va hujjatlar*. Istanbul: Turkiya Ish Banki Madaniyat Nashriyoti, 2012.



tafakkurini shakllantirishda va uning musulmon e'tiqodlarini mustahkamlashda katta ta'sir ko'rsatdi. Mehmed yoshligidanoq yirik davlat arbobi sifatida yetishdi. Murod II 1444-yil 12-iyunda Vengriya bilan sulh tuzgach, avgustda 12 yoshli o'g'li Mehmed II foydasiga taxtdan voz kechdi. 1444-yilda otasi taxtni unga topshirdi. Biroq, davlatdagi noaniqliklar va dushman xavfi sababli II Murad tez orada taxtga qaytdi. Hududiy kengayish va diplomatik faollik: Konstantinopol fathi Usmoniylar uchun Yevropa eshiklarini keng ochdi. Mehmed II Serbiya, Bosniya, Albaniya, Egey va Qora dengiz bo'ylarida ketma-ket yurishlar olib bordi. Trabzon imperiyasini ham bosib oldi. Uning maqsadi Rimni ham fath etish edi – u o'zini “Ikkinchi Iskandar² (Aleksandr)” deb bilgan.

Konstantinopolning Zabti: Mehmed II ikkinchi marta taxtga 1451-yil 18-fevralda chiqdi va o'sha zahoti imperiyani markazlashtirish hamda yangi yurishlarga tayyorgarlik ishlarini boshlab yubordi. Eng muhim strategik maqsad — Yevropa va Osiyo o'rtasidagi muhim savdo yo'llarini egallagan Konstantinopol shahrini egallash edi. Harbiy harakatlar chog'ida bizansdan kelgan elchiga shunday javob beradi:

Yerlarimizni tasarruf etish butunlay bizga tegishli. Rumeli sohillari bizning mulkimiz va biz uni xohlagancha tasarruf etishimiz mumkin. Bizni to'xtatish uchun qanday kuchingiz bor? Boring, imperatoringizga ayting. Ayting: “Hozirgi Usmonli sultoni o'zidan oldingi hech kimga o'xshamaydi”. Sizning imperatoringizning umidlari va harakatlari bizning kuchimiz joylashgan joylarga yetib bormaydi. Sizga bu safar qaytishga ruxsat beramiz. Agar bundan buyon qandaydir elchilar oldimizga xuddi shunday takliflar bilan chiqishga jur'at etsa, biz ularni tiriklayin qirib tashlaymiz!

1453-yil 6-aprelda Mehmed II o'zining 100 mingdan ortiq askardan iborat armiyasi bilan Konstantinopolni qurshab oldi. Shahar 53 kunlik qattiq qarshilikdan so'ng, 29-may kuni qulab tushdi. Bu g'alaba nafaqat Usmonlilar imperiyasi tarixidagi muhim burilish nuqtasi, balki Yevropa tarixidagi eng muhim voqealardan biri bo'ldi. Islom payg'ambari Muhammadning hamrohi va bayroqdori Abu Ayyub al-Ansoriy³ Konstantinopolning birinchi qamalida (674-678) vafot etgan edi. Mehmed II qo'shini Konstantinopolga yaqinlashganda, Mehmed shayxi Aqshamsaddin_ Abu Ayyub al-Ansoriy qabrini topdi. Fathdan keyin Mehmed islom olami uchun fathning ahamiyatini ta'kidlab, uning g'oziy rolini ta'kidlash uchun o'sha joyda Eyüp Sulton masjidini qurdirdi. Shaharni egallaganidan so'ng, Mehmed uni imperiya poytaxtiga aylantirdi va uning nomini “Istanbul” (turkchada - islambol atalgan) deb o'zgartirdi. Mehmed, birlashishi bilan Anadoluda va janubi-sharqiy Yevropada g'arbiy_Bosniyaga qadar fathlarini davom ettirdi. Konstantinopol qulagandan so'ng, Mehmed 1458 va 1460 yillarda ikkita_yurishda Peloponnesdagi Morea despotatini va 1461 yilda shimoli-sharqiy Anadoludagi Trebizond⁴ imperiyasini zabt etdi. Shunday qilib, Vizantiya hukmronligining so'nggi ikki qoldig'i Oretoman imperiyasi tomonidan o'zlashtirildi. Konstantinopolning zabt etilishi mamlakatga ulkan shon-shuhrat va obro'-e'tibor

² Babinger, F. *Fotih Sulton Mehmed va uning davri*. (R. Manheim tarjimasi). Princeton: Princeton universiteti matbuoti, 1992.

³ Bahadıroğlu, Y. *Fatih Sultan Mehmed*. İstanbul: Nesil Yayınları, 2015.

⁴ Babinger, F. *Fotih Sulton Mehmed va uning davri*. (R. Manheim tarjimasi). Princeton: Princeton universiteti matbuoti, 1992.



baxsh etdi. Konstantinopol zabt etilganidan 10 yil o'tgach, Mehmed II Troya⁵ shahriga tashrif buyurib, yunonlarni (vizantiyaliklarni) bosib olib, troyaliklardan o'ch olgani haqida maqtanganligi haqida tarixiy dalillar mavjud. Mamlakatda u ko'plab siyosiy va ijtimoiy islohotlarni amalga oshirdi.

Davlat islohotlari va markazlashgan boshqaruv

Fotih Sulton Mehmed Istanbulni fath etganidan so'ng faqat harbiy hukmdor sifatida emas, balki chuqur tafakkurga ega davlat arbobi sifatida o'zini namoyon etdi. U imperiyani markazlashtirishga, qonuniy asoslar bilan boshqaruvni tartibga solishga harakat qildi.

U tomonidan tuzilgan "Kanunnoma-i Ali Usmon qonunlar majmuasi keyingi Usmoniy sultonlari uchun asosiy siyosiy-ijtimoiy hujjat bo'lib xizmat qildi. Mehmed dindan qat'i nazar, barcha fuqarolarga adolatli munosabatni yo'lga qo'ydi. Istanbulda nasroniylar uchun pravoslav patriarxiyasini saqlab qolgan, yahudiylarga esa boshpana bergan.

Fotih Sulton Mehmed II ning harbiy islohotlari

Fotih Sulton Mehmed II harbiy salohiyatni davlat qudratining asosi deb bilgan va o'z hukmronligi davrida Osmoniy imperiyasining harbiy tizimini tubdan isloh qilgan hukmdor sifatida tarixda muhim o'rin egallaydi. Uning harbiy islohotlari imperiyaning kengayishi, barqarorligi va siyosiy markazlashuvi uchun poydevor bo'ldi.

Mehmed II, eng avvalo, **yanicharlar (yeniçeri)** tizimini isloh qilib, uni doimiy, professional va sultonning shaxsiy sodiq qo'shiniga aylantirdi. Devshirme tizimi orqali yig'ilgan nasroniy bolalar musulmon qilingan va harbiy-siyosiy tayyorgarlikdan o'tkazilgan. Bu armiya qat'iy tartib va intizom asosida harakat qilgan, muntazam maosh olgan va faqat sultonga sodiq bo'lgan. Aynan ushbu kuch Konstantinopol qamalida hal qiluvchi rol o'ynadi.

Shuningdek, Mehmed II o'z davrining ilg'or texnologiyalarini joriy etgan hukmdor sifatida tanilgan. U **og'ir artilleriya — katta kalibrli to'plarni** ishlab chiqarishni yo'lga qo'ydi. Macar muhandisi Urban yordamida quyilgan "Büyük Şahi" nomli ulkan to'plar orqali Vizantiya devorlari yorib o'tildi. Bu yangilik O'rta asr harbiy qal'alarining samarasizligini ochib berdi va urush san'atida burilish yasadi. Dengiz ustunligi ham sulton uchun strategik ahamiyatga ega bo'lgan. Mehmed II **Osmoniy donanmasini (harbiy flot)** kuchaytirib, yangi kemalar qurdirgan, Istanbulni zabt etish chog'ida esa butun dunyoni hayratda qoldirgan taktikani qo'llagan — Halich bo'g'ozini aylanib o'tib, kemalarni quruqlik orqali ko'chirtirgan. Bu nafaqat harbiy ustunlik, balki muhandislik yutug'i sifatida ham tarixda muhrlangan. Sulton harbiy boshqaruvni markazlashtirishga ham katta e'tibor qaratdi. Harbiy yurishlar puxta rejalashtirilgan, sarkardalar sultonga bevosita bo'ysungan, armiyada sinflashtirilgan tuzilma — otliq, piyoda, artilleriya va yordamchi kuchlar aniq ajratilgan va boshqarilgan. Har bir yurish diplomatik va strategik jihatdan asoslangan bo'lgan. Mudofaa maqsadida ham keng qamrovli harakatlar amalga oshirildi. Bosfor bo'g'ozini nazorat qilish uchun qurilgan

⁵ Finkel, C. *Osman's Dream: The History of the Ottoman Empire 1300–1923*. London, 2005.



Rumeli Hsori qal'asi, boshqa strategik harbiy qo'rg'onlar va garnizonlar imperiyaning ichki va tashqi xavfsizligini mustahkamladi.

Fotih Sulton Mehmed II ning harbiy islohotlari Osmoniy imperiyasining harbiy kuchini zamonaviylashtirdi, davlatning ichki barqarorligini ta'minladi va uni Yevropa va Osiyodagi eng kuchli imperiyalardan biriga aylantirdi. U harbiy islohotlarni faqat jang maydoni bilan cheklamay, ularni siyosiy boshqaruv, texnologik yangilik va diplomatik strategiyalarning ajralmas qismi sifatida qaragan.

Fotih Sulton Mehmed II diplomatiyasi – kuch va aql uyg'unligi

Harbiy zabt etishlar bilan birga, diplomatik donoligi bilan ham ajralib turgan Fotih Sulton Mehmed II dunyo tarixidagi eng zukko siyosatchilardan biri sifatida tarixga kirdi. Uning diplomatik siyosati (Finkel, 2005) Usmoniylar imperiyasini nafaqat harbiy qudrat, balki diplomatik nufuz nuqtai nazaridan ham Yevrosiyo kuchlarining markaziga aylantirdi. Mehmed II diplomatiyani faqat do'stona aloqalarni o'rnatish vositasi sifatida emas, balki strategik vosita deb bilgan. Uning yondashuvi realpolitik (haqiqatga asoslangan siyosat) ruhida bo'lgan:

- Kimki Usmoniylar manfaatiga xizmat qilsa – do'st.
- Kimki to'sqinlik qilsa – tahdid.

Shu sababli, u bir tomondan do'stona bitimlar tuzar, boshqa tomondan raqiblar bilan strategik urushlar olib borar edi.

Diplomatik vosita sifatida diniy bag'rikenglik

Mehmed II diniy guruhlar bilan diplomatik aloqalarni ichki boshqaruv vositasi sifatida ham mohirona ishlatgan. U tushungan edi: turli millat va dinlarga adolat bilan yondashilsa, davlat barqarorligi mustahkamlanadi. Masalan: provaslav, arman va yahudiylarga bir qancha yengilliklar yartib bergan. Sulton Mehmed diplomatik maktublarga katta e'tibor bergan. U Yevropa hukmdorlariga rasmiy maktublar yuborib, o'zining niyatlari va qudratini bildirgan. Kuchli diplomatiya⁶ – imperiyaning ikkinchi ustuni. Fotih Sulton Mehmed II ning diplomatiyasi shunchaki ittifoqlar tuzish emas, balki davlat manfaatlarini maksimal darajada ilgari surish san'ati edi. U diplomatik donolik orqali Usmoniylarni nafaqat harbiy, balki siyosiy jihatdan ham eng kuchli davlatlardan biriga aylantirdi.

U san'at va fanlarni rag'batlantirdi va hukmronligining oxiriga kelib uning qayta qurish dasturi Konstantinopolni gullab-yashnagan imperator poytaxtiga aylantirdi. U zamonaviy Turkiyada va musulmon olamining ayrim qismlarida qahramon sanaladi. Boshqa narsalar qatorida Istanbulning Fotih tumani, Fotih Sulton Mehmet ko'prigi va Fotih masjidi ham uning nomi bilan atalgan. Bosqinchi va Uyg'onish davri (Babinger, 1953):

Yevropa Uyg'onish davri bosqinchining Vizantiyani zabt etishi bilan boshlandi...

P. For

Bo'lishish naqt Vizantiya devorlarini emas, balki O'rta asrlar va O'rta asrlar Yevropasining hamisha makkor darvozalarini vayron qildi. Ilmiy kashfiyotlar qilgan,

⁶ Inalcik, H. *Fotih davri ustida tadqiqotlar va hujjatlar*. Istanbul: Turkiya Ish Banki Madaniyat Nashriyoti, 2012.



bemorlarni kimsasiz orollarga surgun qilib, o'limga qoldirgan, ruhiy kasallarni shayton tutgan deb, zanjirband qilgan olimlarni tirgaklagan qorong'u mutaassiblik tarqala boshladi. Chunki salib yurishlaridan buyon Islom olami bilan haqiqiy aloqaga ega bo'lmagan nasroniy olamining butun e'tiborini musulmonlarga qaytarishiga katta fath sabab bo'ldi. Bu safar diqqat markazida fath va tabiiyki, Fatih edi. Ularning ko'zlari qamashar, har jihatdan ilg'or bo'lib, qisqa fursatda ilm-fan taraqqiyotining deyarli cho'qqisiga chiqqan davlatga havas qilar, yosh bosqinchi kuch-qudrat manbasini kashf etishga intilishardi. Uyg'onish davri Italiyada boshlangani bejiz emas. Italiya yurishi (1480) davrida Usmonlilar bilan yuzma-yuz kelgan italiyaliklar o'zlarining sharaflari dushmanlarini o'zlariga qaraganda beqiyos darajada yuqori darajada topdilar. Ilm-fan va madaniyat sohalarida boshni aylantiruvchi rivojlanish, hatto oldinga sakrash ham yuz berdi. Mehmed II Vizantiya va Galata jamoalariga berilgan keng bag'rikenglik mazhablararo tafovut tufayli o'z dindoshlari bilan yillar davomida urushib kelgan Yevropaga, ayniqsa, diniy bag'rikenglik va inson huquqlarini chuqur o'ylash va o'rganish zarurligini eslatdi. Fatih Mehmedning ulkan bag'rikengligini tan olishlari va chora ko'rmasliklari mumkin emas edi. Vaqt o'tishi bilan bu harakatlar kuchaydi, rivojlandi va tarqaldi, o'rta asrlar Yevropasining ko'p qirralarini, xususan, madaniyat, san'at, adabiyot va hayot tushunchasini o'zgartirgan harakat Uyg'onish davrini vujudga keltirdi. P. For aytganidek, "Mehmet Fatih Uyg'onish davri'ning eng buyuk ilhomlantiruvchilaridan biridir. Uyg'onish davri Fatih Mehmed, Boyazid II va Yavuzning bag'rikengligi tufayli qarzdordir"

Fotih Sulton Mehmed II va Usmoniy me'morchiligining yangi qirralari

Istanbul fatihi, dono hukmdor va buyuk bunyodkor sifatida tarixda iz qoldirgan Fotih Sulton Mehmed II nafaqat siyosiy, balki me'moriy sohada ham muhim burilish yasagan shaxsdir. U Istanbulni nafaqat fath etdi, balki uni islomiy dunyoning eng go'zal va obod markazlaridan biriga aylantirdi. Fotih davrida boshlangan me'morchilik harakati Usmoniy arxitekturasini yangi bosqichga olib chiqdi.

Istanbulning me'moriy qayta tug'ilishi

1453-yilda Istanbul (sobiq Konstantinopol) fath etilganida shahar tanazzulga yuz tutgan, ko'plab binolar vayron bo'lgan va aholisi kamaygan edi. Fotih bu qadimiy shaharni Usmoniylar davlatining poytaxtiga aylantirishni maqsad qilgan holda uni butunlay qayta qurishga kirishdi. Bu harakatlar nafaqat shahar infratuzilmasini tiklash, balki yangi me'moriy uslubni yaratishga qaratilgan edi. Fotih boshchiligida Istanbulda keng ko'lamli shaharsozlik islohotlari amalga oshirildi. Unda quyidagi asosiy yo'nalishlar ko'zda tutilgan edi:

1. Markaziy ibodat va ilm maskanlari – masjidlar, madrasalar, kutubxonalar.
 2. Ijtimoiy xizmatlar binolari – shifoxonalar, hammomlar, oshxonalar, karvonsaroylar.
 3. Iqtisodiy infratuzilma – bozorlari, hunarmandlar mahallalari, karvonsaroylar.
- Bu majmualar shaharning har jihatdan rivojlanishiga zamin yaratdi.

⁷ Babinger, F. *Fotih Sulton Mehmed va uning davri*. (R. Manheim tarjimasi). Prinston: Prinston universiteti matbuoti, 1992.



Fotih Külliyesi⁸ – Usmoniy me'morchiligining ilk cho'qqisi

Fotih Sulton Mehmedning eng muhim qurilish loyihasi bu – Fotih Külliyesi bo'lib, u 1463–1470 yillar oralig'ida Vizantiya imperatori Konstantin I ning qadimiy cherkovi o'rnida barpo etildi. Ushbu majmua nafaqat diniy markaz, balki ijtimoiy, ilmiy va iqtisodiy hayot markazi sifatida ham faoliyat yuritgan. Shahar fath etilganida, aholisining katta qismi ketgan yoki yo'q qilingan edi. Mehmed II aholining qaytib kelishini rag'batlantirdi va yangi ko'chmanchilarni olib kelib, Istanbulni qayta jonlantirdi. U shahar ichida **yangi mahallalar, bozorlar, ustaxonalar va hammomlar** qurdirib, uni iqtisodiy jihatdan jonlantirdi. Bu siyosat orqali Istanbul tez orada Osmoniy imperiyasining eng muhim savdo va siyosiy markaziga aylandi. Sulton Mehmed yangi imperatorlik markazi sifatida **Topkapi saroyini** qurdiradi. Bu saroy Osmoniy hukmdorlarining asosiy qarorgohiga aylangan bo'lib, u yerda davlat kengashi (Divon), hukmronlik marosimlari va xalqaro elchilar qabul qilinardi. Saroyning atrofida ham ko'plab xizmatkorlar, ma'murlar va san'atkorlar yashagan, bu esa Istanbulni siyosiy, ma'rifiy va madaniy markazga aylantirgan. Shaharni himoyalash uchun **Rumeli Hsori** kabi strategik qal'alar qurildi. Bundan tashqari, Istanbul atrofida devorlar ta'mirlandi va harbiy jihatdan mustahkamlashtirildi. Bu bunyodkorlik nafaqat shahar xavfsizligini ta'minladi, balki uni imperiyaning barqaror poytaxtiga aylantirdi.

Vizantiya me'morchiligi bilan uyg'unlik

Fotih Sulton Mehmed eski Vizantiya arxitekturasini chuqur o'rganib, undan ilhom olgan holda yangi me'moriy yondashuv yaratdi. Ayniqsa, Ayasofiya (Babinger, 1953) cherkovining masjidga aylantirilishi, uni islomiy me'morchilik maktabiga aylantirdi. Fotih Vizantiyalik me'mor va muhandislarni xizmatga olgan holda ularni musulmon me'morlar bilan birgalikda ishlatgan. Bu esa ikki madaniyat uyg'unligini yuzaga keltirdi. Fotih Sulton Mehmed II o'z davrida nafaqat yirik harbiy zabtlar qilgan, balki barpo etgan shaharlar, masjidlar va majmualar bilan ham tarixga muhrlangan buyuk hukmdordir. Uning me'morchilik siyosati nafaqat Istanbulning, balki butun Usmoniy imperiyasining yangi arxitektura yo'nalishini belgilab berdi. Bu yo'l keyinchalik Mimar Sinan⁹ kabi buyuk me'morlar davrida o'z mukammalligiga yetdi. Fotih me'morchilikni davlat siyosatining ajralmas qismiga aylantirib, uni san'at va jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog'lagan edi. Fotih masjidi (Fatih Camii), Istanbul, Topkapi saroyi (Topkapi Sarayı), Rumeli Hsori (Rumeli qal'asi), Anadolu Hsori (Kichik Hsori), Eyüp Sulton masjidi va maqbarasi shu kabi bir qancha nodir imoratlarni bunyod etadi.

Umumiy xulosa

Fotih Sulton Mehmed II nafaqat Istanbulni fath etgan zabardast sarkarda, balki Usmoniy imperiyasini yangi bosqichga olib chiqqan, dunyo tarixiga muhr urgan dono va farosatli hukmdordir. Uning 1453-yilda Vizantiya imperiyasining markazi bo'lgan Konstantinopolni egallashi nafaqat bir shahar yoki imperiyaning qulashini, balki butun dunyo tarixida yangi davr — **O'rta asrlar yakunlanib, Yangi davr** boshlanishini

⁸ Goodwin, G. *Usmonli me'morchiligi tarixi*. London: Thames & Hudson nashriyoti, 1971.

⁹ Goodwin, G. *Usmonli me'morchiligi tarixi*. London: Thames & Hudson nashriyoti, 1971.



anglatadi. Fotihning davlat boshqaruvi, harbiy iste'dodi, diplomatik mahorati, adolatli siyosati, ilm-fan va san'atga homiyligi uni o'z davrining buyuk yetakchilaridan biriga aylantirdi. Uning siyosiy zukkoligi natijasida Usmoniylar faqatgina Yaqin Sharqda emas, balki Yevropaning yuragiga qadar o'z nufuzini yoydi. Ayniqsa, Istanbulni musulmon dunyosining siyosiy, ilmiy va madaniy markaziga aylantirishi tarixiy burilish bo'ldi. Shuningdek, Fotihning me'morchilikka e'tibori, olim va san'atkorlarga yaratgan sharoitlari tufayli Usmoniy madaniyati yuksak cho'qqilarga chiqdi. U diniy bag'rikenglik siyosatini yuritib, Istanbulni ko'p millatli va ko'p madaniyatli shaharga aylantirdi. Tarixda kamdan-kam hukmdorlar borki, ularning harbiy, siyosiy, ilmiy va madaniy sohalaridagi ta'siri bir vaqtning o'zida bu qadar keng va chuqur bo'lgan. **Fotih Sulton Mehmed II ana shunday nodir siymolardan biridir.** Uning vorislari – Yavuz Sulton Salim, Qanuniy Sulaymon kabi sultonlar aynan Fotih boshlab bergan yo'ldan borib, Usmoniy imperiyasini jahonga mashhur qudratli saltanatga aylantirdilar. Shunday qilib, Fotih Sulton Mehmed II nafaqat Istanbulning, balki butun islom dunyosining faxri va tarix sahnasidagi unutilmas siymo bo'lib qolmoqda. Uning hayoti va merosi bugungi kunda ham siyosatshunoslar, tarixchilar va musulmon olamining diqqat markazida qolmoqda

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. İnalçık, H. *Fotih davri ustida tadqiqotlar va hujjatlar*. Istanbul: Turkiya Ish Banki Madaniyat Nashriyoti, 2012.
2. Bahadıroğlu, Y. *Fatih Sultan Mehmed*. İstanbul: Nesil Yayınları, 2015.
3. Babinger, F. *Fotih Sulton Mehmed va uning davri*. (R. Manheim tarjimasi). Prinston: Prinston universiteti matbuoti, 1992.
4. Caroline Finkel – *Osman's Dream: The History of the Ottoman Empire* (Butun Usmoniylar tarixini qamrab olgan, ilmiy-ommabop asar.)
5. Goodwin, G. *Usmonli me'morchiligi tarixi*. London: Thames & Hudson nashriyoti, 1971.
6. Mehmed II İslam Ansiklopedisi, Istanbul, 1957.
7. Bahadıroğlu, Yavuz. *Osmanlı Padişahları Ansiklopedisi*, İstanbul: Yeni Asya Yayınları, 1986.

Onlayn manbalar (ilmiy saytlardan):

1. www.nesilyayinlari.com
2. wikipedia.com
3. <https://archive.org>
4. <https://dergipark.org.tr>
5. <https://scholar.google.com>